

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
QO'QON DAVLAT UNIVERSITETI



“TASDIQLAYMAN”
Qo'qon davlat universiteti
rektori D.Sh.Xodjayeva
2025 yil “29” avgust

AUTIZM NUQSONLI BOLALAR NUTQIY NUQSONLARINI
KORREKSIYALASH
FANINING O'QUV DASTURI

Bilim sohasi: 100000 – Ta'lim
Ta'lim sohasi: 110000 – Ta'lim
Magistratura mutaxassisligi: 70110301 – Maxsus pedagogika,
defektologiya (Logopediya)

Fan/mavzu kodi ANBNNK2305		O‘quv yili 2026-2027	Semestr 3	Kreditlar 5	
Fan/mavzu turi Tanlov		Ta’lim tili O‘zbek		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi		Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Autizm nuqsonli bolalar nutqiy nuqsonlarini korreksiyalash		60	90	150
2.	I. Fanning mazmuni Fanni o‘qitishdan maqsad – talabalarni autizm spektri bo‘lgan bolalarning rivojlanishining o‘ziga xosligini, nutqni muloqot qilish ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘yicha korreksion ishni tashkil etish hamda fanning nazariy va amaliyoti muammolari bilan tanishtirish orqali ularda kasbiy amaliy ko‘nikmalarini shakllantirishdir. Fanning vazifasi – autizm spektri bo‘lgan bolalarni rivojlanishining o‘ziga xosligini, yo‘nalishlari va vazifalarini bilishi, autizm spektri buzilgan bolalarda sensor kamchiliklarni namoyon bo‘lishini tahlil qila olish, autizm spektri buzilgan bolalarda muloqot qilish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, autizm spektri buzilgan bolalarda nutqiy muloqotni shakllantirish hamda korreksion ish usullarini qo‘llash bo‘yicha ko‘nikma va malakalarini hosil qilishdan iborat. II. Nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari) II. I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi: 1-modul. (1,2, mavzular)Autizm spektrining buzilishi (ASD) Tarixiy kontekst, tasnifi, ko‘rinishlari, epidemiologiyasi. Autizm spektrining buzilishi tadqiqotining tarixiy konteksti.Tasniflashning ta’riflari. Autizm spektrining buzilishining namoyon bo‘lishi. Autizm spektrining buzilishi epidemiologiyasi. 2-modul.(3,4 mavzular) Nutqni muloqot qilish ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘yicha tuzatish ishlarining maqsadi, yo‘nalishlari va vazifalari Muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘yicha korreksion ishlarining tamoyillari. Muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish usullari. Muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish shartlari. Ko‘nikmalarni o‘rganish algoritmi 3-modul. (5,6 mavzular)Autizm spektri buzilgan bolalarda sensor kamchiliklarni namoyon bo‘lishi Autizm spektri buzilgan bolalarda hissiy idrok etish muammolari. Autizm spektri buzilgan bolalarda vizual idrok etish muammolari. Autizm spektri buzilgan bolalarda hissiy integrasiya. Autizm spektrining buzilgan bolalarda hissiy tizimlar rivojlanishidagi buzilishlarni namoyon bo‘lishi				

4-modul. (7,8 mavzular)Autizm spektri buzilgan bolalarda muloqot qilish uchun zarur shart-sharoitlar

Autizm spektri buzilgan bolalarda noverbal muloqot (imo-ishoralar) elementlarini shakllantirish. Autizm spektri buzilgan bolalarda nutqiy nafasini rivojlantirish. Autizm spektri buzilgan bolalar nutq apparatining artikulyasiya bo'limini passiv gimnastika yordamida muloqotga tayyorlash. Autizm spektri buzilgan bolalarda taqlid qilishni rivojlantirish. Autizm spektri buzilgan bolalarda so'rov ko'nikmalarini shakllantirish.

5-modul. (9 mavzu)Autizm spektri buzilgan bolalarda nutqiy muloqotni shakllantirish

Autizm spektri buzilgan bolalarda impressiv nutqni rivojlantirish. Autizm spektri buzilgan bolalarda ekspressiv nutqni shakllantirish.

6-modul. (10 mavzu) Kommunikativ muloqot ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha korreksion ishlarining tashkiliy shakllari

Autizm spektri buzilgan bolalarda muloqot ko'nikmalarini shakllantirish dasturi. Iltimoslar, murojatlarni ifoda etish ko'nikmalarini shakllantirish. Ijtimoiy javob reaksiyalarini shakllantirish. Ob'yektlar, odamlar, harakatlar, birgalikda yashashni nomlash, sharhlash va tasvirlash ko'nikmalarini shakllantirish. Diqqatni jalb qilish va savol berish ko'nikmalarini shakllantirish. Tuyg'u va his-tuyg'ularni ifodalash, ular haqida xabar berish ko'nikmalarini shakllantirish. Ijtimoiy xulq-atvorni shakllantirish. Dialog ko'nikmalarini shakllantirish.

III. Amaliy mashg'ulotlar buyicha ko'rsatma va tavsiyalar

amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Autizm spektrining buzilishi (ASD). Tarixiy kontekst, tasnifi, ko'rinishlari, epidemiologiyasi.
2. Nutqni muloqot qilish ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha tuzatish ishlarining maqsadi, yo'nalishlari va vazifalari.
3. Autizm spektri buzilgan bolalarda sensor kamchiliklarni namoyon bo'lishi. Autizm spektri buzilgan bolalarda hissiy idrok etish va vizual idrok etish muammolari.
4. Autizm spektri buzilgan bolalarda hissiy integrasiya.
4. Autizm spektri buzilgan bolalarda noverbal muloqot (imo-ishoralar) elementlarini shakllantirish.
5. Autizm spektri buzilgan bolalarda nutqiy nafasini rivojlantirish. Autizm spektri buzilgan bolalar nutq apparatining artikulyasiya bo'limini passiv gimnastika yordamida muloqotga tayyorlash.
6. Autizm spektri buzilgan bolalarda taqlid qilishni va so'rov ko'nikmalarini shakllantirish.
7. Autizm spektri buzilgan bolalarda nutqiy muloqotni shakllantirish. Impressiv nutqni rivojlantirish.

8. Autizm spektri buzilgan bolalarda ekspressiv nutqni shakllantirish.
 9. Autizm spektri buzilgan bolalarda muloqot ko'nikmalarini shakllantirish dasturi.
 10. Iltimoslar, murojatlarni ifoda etish ko'nikmalarini shakllantirish.
 11. Ijtimoiy javob reaksiyalarini shakllantirish.
 12. Ob'yektlar, odamlar, harakatlar, birgalikda yashashni nomlash, sharhlash va tasvirlash ko'nikmalarini shakllantirish.
 13. Diqqatni jalb qilish va savol berish ko'nikmalarini shakllantirish.
 14. Tuyg'u va his-tuyg'ularni ifodalash, ular haqida xabar berish ko'nikmalarini shakllantirish.
 15. Ijtimoiy xulq-atvorni shakllantirish. Dialog ko'nikmalarini shakllantirish.
- Amaliy mashg'ulotlarda mavzularga oid masalalarni tahlil qilish, tanqidiy yondashish, muammoli vaziyatlarda o'rganish amaliy bajariladi.

IV.Seminar mashg'ulotlar buyicha ko'rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Autizm spektri buzilgan bolalarda hissiy tizimlarning rivojlanishidagi buzilishlarni namoyon bo'lishi.
2. Autizm spektri buzilgan bolalar nutqiy muloqotining buzilishlarini o'rganish muammolari, muloqotni rivojlantirishda xorijiy yondashuvlar.
3. Autizm spektrining buzilishi bo'lgan bolalarda kommunikativ faoliyatning xususiyatlari.
4. Erta bolalik autizmida muloqot xususiyatlari.
5. Autizm spektri buzilgan bolalarda kognitiv disontogeneznining differensial diagnostikasi.
6. Autizm spektri buzilgan bolalarda og'zaki muloqot ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha korreksion ishlarining maqsadi, yo'nalishlari va vazifalari.
7. Autizm spektri buzilgan bolalarda muloqot ko'nikmalarini shakllantirish usullari.
8. Autizm spektri buzilgan maktabgacha katta yoshdagi bolalar nutqining semantik tomonining xususiyatlari.
9. Autizm spektrining buzilishi bo'lgan bolalar diagnostikasi
10. Autizmli bolani tarbiyalayotgan oila bilan ishlash

Seminar mashg'ulotlarda mavzularga oid masalalarni tahlil qilish, tanqidiy yondashish, muammoli vaziyatlarda o'rganish bajariladi.

V.Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ishlar quyidagi turlarda amalga oshirilishi tavsiya etiladi:

- esse – dolzarb mavzu bo'yicha shaxsiy fikrini tanqid, publisistik va boshqa janrlarda yozma bayon qilish;
- dokladlar tayyorlash;
- konspekt yozish;

	- glossariy tuzish; - individual va guruhliy o‘quv loyihasi; - keys-topshiriqlarini bajarish; - mavzuli portfoliolar tuzish; - axborot-tahliliy materiallar bilan ishlash; - manbaalar bilan ishlash; - infografika tuzish; - multimediali taqdimotlar yaratish; - darslarning metodik ishlanmalarini tayyorlash; - darsdan tashqari mashg‘ulotlar ishlanmalarini tayyorlash; ta’lim yo‘nalishi(mutaxassislik)ning xususiyatidan kelib chiqqan holda mustaqil ishlarning boshqa turlaridan foydalanish mumkin. Tavsiya etilayotgan mustaqil ta’limning mavzulari: 1. Alohida yordamga muhtoj bollarni ijtimoiy hayotga moslashish muammolari 2. Mutaxassislarni ota-onalar bilan ishlash usullari. 3. Autizm spektri buzilgan bolalar nutqining o‘ziga xosligi 4. Autizm spektri buzilgan bolalar bilan korreksion ish 5. Autizmli bolalar uchun tizimli ta’lim yondashuvi. 6. Autizmli bolalarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish 7. Autizmli bolalarda ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish va muammoli xatti-harakatlarni korreksiyalash. 8. Autizmli bolalarning impressiv va ekspressiv nutqni rivojlantirish 9. Autizmli bolalarda hissiy integrasiyani rivojlantirish. 10. Autizmli bolalarni operativ tarbiyalash. Bolalik autizmini tuzatishda hissiy yondashuv.
3.	VI. Ta’lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar) Talaba bilish kerak: • Autizm spektori bo‘lgan bolalarning muloqot ko‘nikmasini shakllantirish fani va uning nazariy va amaliy ahamiyati haqida <i>tasavvurga ega bo‘lishi; (bilim)</i> • Autizm spektori bo‘lgan bolalarning muloqot ko‘nikmasini shakllantirish fanini o‘zlashtirgan talaba autizm spektori bo‘lgan bolalarni rivojlanishining o‘ziga xosligini, autizm spektrining buzilishi bo‘lgan bolalarda hissiy idrok etish va vizual idrok etishning xususiyatlarini, autizm spektrining buzilishi bo‘lgan bolalarda kommunikativ faoliyatning xususiyatlarini bilishi, muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘yicha korreksion ish usullarini yangi axborot texnologiyalarini qo‘llab, olgan bilimlarini pedagogik va ilmiy faoliyatida qo‘llay olishni <i>bilishi va ulardan foydalana olishi; (ko‘nikma)</i>. • Autizm spektori bo‘lgan bolalarning muloqot ko‘nikmasini shakllantirish fanini o‘qitishda ta’lim texnologiyalari, elektron plakatlari, tarqatma materiallar,

	elektron qo'llanmalar, internet ma'lumotlari, lokal tarmoqdagi turli o'quv, ilmiy bilimni nazorat qilish bo'yicha ma'lumotlar jamlamasidan foydalaniladi. Mustaqil ta'lim, aqliy hujum, vaziyatli masalalarni yechish, diskussiya, referatlar yozish kabi pedagogik usullar bilan fanning o'qitilishi amalga oshiriladi va fan asosida nazariy bilimlarni amaliy qo'llay olish <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak (malaka)</i>
4.	VII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: • interfaol keys-stadilar; (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • amaliy mashg'ulotlar • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa ishlash va himoya qilish uchun loyihalar. • ijodiy ishlar yaratish
5.	VIII. Kreditlarni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va amaliy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish, joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat topshirish.
6.	IX. Asosiy adabiyotlar 1. Ayupova M.Yu. Logopediya. O'zbekiston faylasuflar Milliy jamiyati. T.: 2007, 2011 y. 2. Defektologiya. S.Isamitdinov. T-Fan. 2007 y. 3. Maxsus psixologiya. L.Mo'minova. O'zbekiston. 2013 y. 4. Maxsus pedagogika. Jamoa fan va texnologiya 2014 y. 5. Muminova L., Ayupova M. Logopediya. T.: O'qituvchi 1993 y. IX. Qo'shimcha adabiyotlar 1. Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017 yil 14 yanvar / Sh.M. Mirziyoyev. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 104 b. 2. Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. 2016 yil 7 dekabr /Sh.M.Mirziyoyev. – Toshkent: "O'zbekiston", 2017. – 48 b.

	3. Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Mazkur kitobdan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2016 yil 1 noyabrdan 24 noyabrga qadar Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri saylovchilari vakillari bilan o‘tkazilgan saylovoldi uchrashuvlarida so‘zlagan nutqlari o‘rin olgan. /Sh.M.Mirziyoyev. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b. 4. Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Yangi O‘zbekiston strategiyasi.- Toshkent, 2021. -458 b. 1. А.И.Ахметзянова, В.Й.Дадакина, И.В.Кротова, И.А.Нигматуллина, А.А.Твардовская Расстройства аутистического спектра. Казан 2020 2. Хаустов Артур Валеревич. Формирование навыков речевой коммуникации у детей с расстройствами аутистического спектра Учебно-методическое пособие, Москва, 2010 3. Сандрикова Валентина Сергеевна. Логопедические игры и упражнения для развития речи у детей с расстройствами аутистического спектра Пособие для логопедов и родителей. Москва, 2019 O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING FARMONI 4. O‘zbekiston respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida. (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda) 5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 - yil 6 – noyabrdagi "O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim - tarbiya va ilm - fan sohalarini rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida " gi PF - 6108 - son farmoni. Axborot manbaalari 6. http://www.edu.uz—O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi sayti. 7. http://www.uzedu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi sayti. 8. http://www.gov.uz— O‘zbekiston Respublikasi xukumati portali. 9. www.pedagog.uz 10. http://www.ziyounet.uz/
7.	Qo‘qon davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashning 2025 yil “ 29” avgustdagi qarori bilan tasdiqlangan.
8.	Fan/modul uchun mas’ul va dastur mualliflari: M.Xovodillayev - QDU Maxsus pedagogika kafedrası o‘qituvchisi
9.	Taqrizchilar: L.R.Xayitov – Pedagogika va psixologiya fakulteti Maxsus pedagogika kafedrası mudiri p.f.b.f.d (PhD); dotsent.

